

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251972>

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA TA'LIM TIZIMI

Boltayeva Poshshajon Rashid qizi

“Ichan-Qal’ a” davlat muzey-qo‘riqxonasi bo‘lim mudiri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlari da Xiva xonligida ta'limgardagi tarbiya tizimi haqida va o'qitish uslublar haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Madrasa, Ogahiy, Munis, Arabmuhammadxon madrasasi, Xudoyberdi Qo'shmuhammad, Muhammad Yusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy, Ahmadjon Tabibiy.

THE EDUCATION SYSTEM IN THE KHIV KHANATE AT THE END OF THE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

ABSTRACT

This article provides brief information about the education system and teaching methods in the Khiva Khanate in the late 19th and early 20th centuries.

Keywords: Madrasa, Ogahiy, Munis, Arabmuhammadxon madrasasi, Xudoyberdi Qo'shmuhammad, Muhammad Yusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy, Ahmadjon Tabibiy.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida ichki va tashqi kuchlar ta'sirida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

Bu davrda mamlakatda 1,5 ming ga yaqin maktablar faoliyat yuritardi. Bu maktabni bitirgan talabalarning ayrimlari oliy (madrasa) o‘quv yurtida o‘qishni davom ettirib, 10 yilgacha ta’lim olishardi.

Bunda asosiy fanlar sifatida arab grammatikasi, islom huquqi va falsafasi, shuningdek, qo‘sishimcha ravishda elementar arifmetika va geometriya o‘qitilardi. Madrasa talabalari imtihon sinovlari topshirganlaridan so‘ng bo‘shab qolgan qozilik, imomlik yoki boshqa biror nufuzli lavozimlarni egallashlari mumkin edi. Yodda tuting! Xiva xoni mamlakatni o‘zi mansub bo‘lgan qo‘ng‘irot urug‘i zodagonlari, saroy a’yonlari va oliy ruhoniylar guruhi madadiga tayanib boshqargan.

XIX asrning ikkinchi yarmida, Muhammad Rahimxon II Feruz davrida, Xiva xonligining madaniy hayotida o‘ziga xos yuksalish jarayonlari yuz berib, bunyodkorlik, obodonlashtirish hamda madaniy rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Bunyodkorlik namunasi sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yigirmadan ortiq madrasa, masjid, minora va yo‘llar barpo etilganligini aytib o‘tish mumkin. To‘ra Murod minorasi (1888 yil), Bikajon bika minorasi (1894 yil), Polvon qori madrasasi (1905 yil), Qozi kalon madrasasi (1905 yil), Polvon darvoza (1906 yil), Islom Xo‘ja madrasasi va minorasi (1910-1911 yillar) va boshqa ko‘plab me’morchilik obidalari bevosita Muhammad Rahimxon rahbarligi va homiyligida qurildi .

Akademik Yahyo G‘ulomov «Xiva shahri obidalari» monografiyasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva shahrining o‘zida 36 madrasa bino qilinganligini ko‘rsatib o‘tadi . XX asr boshlarida xonlikda jami 130 madrasa, 1636 masjid bo‘lganligi haqida ma’lumotlar bor. Yuqorida aytilganidek, bunday qurilish ishlari Muhammad Rahimxon II Feruz davrida keng quloch yoydi va o‘ziga xos me’morchilik maktabi vujudga keldi. Bu esa qisqa davr ichida xonlikda katta me’moriy obidalar bo‘lganligidan va XX asr boshlarida Xivada me’morchilik qurilishlari yaxshigina rivoj topganligidan dalolat beradi.

Madrasalar to‘g‘risida Ye. Jelyabujskiy shunday yozadi: «Xiva va turkmanlar yurtida madrasa va o‘quv yurtlari juda ko‘p. Ularning qurilishi va faoliyati uchun hukmdorlar ham, xalq ham kuchli jonbozlik ko‘rsatishadi. Masalan, Xivada bir necha

madrasalar mavjud, ayniqsa, Madaminxon madrasasi mashhurdir. Xalqni o‘qitish va ma’lumotli qilish bilan dindorlar shug‘ullanishadi» .

Xiva madrasalarida 15 yoshga to‘lgan har bir musulmon farzandi, savodi va iqtidori inobatga olingan holda qabul qilinardi. Ularni «mulla» yoki «tolibul ilm» deb ataganlar.

Xiva O‘rta Osiyoda madrasalari ko‘pligi jihatidan faqat Buxorodan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallagan. Hozirda Xiva shahrida 65 ta madrasa saqlangan, shulardan 54 tasi shaharda, 11 tasi shahar atrofida joylashgan. Mazkur madrasalarning 10 tasi Xiva xonlari, 20 dan ziyodi xon avlodlari, boylari va diniy mahkama ulamolari tomonidan qurilgan.

XIX asr va XX asr boshlarida Xiva xonligining madaniy hayotida alohida davr canaladi. Bu davr xonlikda ilm-fan, tarixnavislik, tarjimonlik, adabiyot, she’riyat, musiqa va bastakorlik, me’morchilik va boshqa sohalarda ulkan yutuqlarga erishilganligi bilan ajralib turadi. Bu yuksalishda Olloqulixon, Sayid Muhammadxon, ayniqsa, ma’rifatparvar xon Muhammad Rahimxon II ning alohida xizmatlari bor. U o‘z saroyini o‘ziga xos ilmiy-madaniy markazga aylantirgan. Xon saroyiga 40 dan ortiq mashhur ijodkorlarni, olimlarni, fozillarni, mashhur tarixchilar, adabiyotchilar, musiqa san’atining yetuk namoyandalarini to‘pladi. Xon saroyida ijod qilgan buyuk allomalar qatorida Shermuhammad Munis, Ogahiy, Xudoyberdi Qo‘shmuhammad, Muhammad Yusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy, Ahmadjon Tabibiy kabi o‘nlab ijodkorlarning nomlarini ko‘rsatish mumkin.

Xiva madrasalarida yoshlarga xattotlik va husnixatlik san’atidan ta’lim berilgan. Munis, Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, Bayoniy, Yusuf Rojiy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Panoh Xorazmiy, Hudoybergan Muhrkan, Abdulla Bolta o‘g‘li va boshqalar Xiva xattotlik maktabining peshqadam vakillaridan sanalgan.

Manbalarning guvohlik berishicha XIX asrda Xiva xonligida 90 ga yaqin iste’dodli xattotlar faoliyat ko‘rsatganlar. Yozuv san’atining mohir ustasi bo‘lgan Munis 1804-yilda xattotlik san’atiga bag‘ishlab o‘zining «Savodi ta’lim»

qo'llanmasini tayyorlagan. Bu risola Xiva madrasalarida talabalarga darslik sifatida o'rgatilgan.

Xiva tarixchilari Ogahiy va Bayoniyning bergen ma'lumotiga ko'ra, XIX asr o'rtalarida Xivadagi madrasalar soni 22 taga yetgan. XX asr boshlariga kelib esa ularning soni 130 dan oshgan va 9300 talaba tahsil olgan. Masjid va xonaqohlar qoshida 1500 dan ortiq boshlang'ich maktablar ishlab turgan. Ularda 45 ming o'quvchi yoshlar ta'lim va tarbiya olgan. Maktab va madrasalarda ta'lim tizimi avvalgi tartib asosida davom etgan. Bu davrga kelib ta'lim tizimida asosiy e'tibor islomiy ilmlarga: Qur'oni Karim, hadis, islom huquqshunosligi kabi ilmlarni o'rgatishga qaratiladi. Shuningdek, madrasalarda tarix, adabiyot, mantiq, falsafa, musiqa va xattotlik ilmi ham o'rgatilgan. Riyoziyot, astronomiya, tabobat va boshqa aniq fanlardan umumiy tushunchalar berilgan.

Madrasalarda diniy va dunyoviy ilm berilgan, ayni paytda ko'ngilochar o'yinlar, shuningdek ashula aytish man qilingan. Madrasalarda o'qish muddati chegaralanmagan bo'lib, ayrim talabalar bir kursda 3-4 yil, ayrimlari esa 8-10 yillab o'qishgan. O'qish esa uch kursda olib borilgan: «adno» – boshlang'ich, «avsat» – o'rta va «a'lo» – oxirgi kurs.

Madrasaga 15 yoshga to'lgan har bir musulmon farzandi, savodi va iqtidori inobatga olingan holda qabul qilinardi. Ularni «mulla» yoki «tolibul ilm» deb ataganlar.

Xivada madrasalarini tugatgan talabalar imtihondan o'tishgan. Buning uchun xon tomonidan maxsus hay'at tuzilar, uning tarkibiga ba'zida xonning o'zi, ko'pincha valiahd, qozikalon (bosh qozi), qozio'rda (shahar qozisi) va bir qancha ulamolar kirishardi. Imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga mufti, a'lam, oxun, mukarrir unvoni berilardi. Bitkazuvchilar ilohiyot ilmini mukammal o'zlashtirishar, ayni kezda dunyoviy ilmlardan xabardor bo'lishardi. Xiva madrasalarini tugatgan talabalar orasida shoirlar, muarrixlar, xattotlar, olim va fozil kishilar yetishib chiqqani fikrimizning dalilidir.

Madrasalarga davlat xazinasidan va xayriya hisobidan ham mablag‘ ajratilgan. Xiva tarixchisi, naqqosh Abdulla Boltaevning bergan ma'lumotiga qaraganda, XIX asr o‘rtalarida Xiva madrasalari va muqaddas joylarga vaqf qilingan ekin maydonlarining umumiyligi hajmi 170-175 ming tanobni tashkil etgan.

Foydalaniman adabiyotlar.

1. Гулямов Я. Памятники города Хивы. – Тошкент: Фан, 1941.
2. Зохидов П. Ш, Аванесов Р. Х. Хива. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
3. Лаффасий. Тазкираи шуаро. – Урганч.: Хоразм, 1992.
4. Мухаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшохий. – Тошкент: Мерос, 1992.
5. Matniyozov M. Xorazm tarixi. II-jild. Urganch. 1997. 274-b.